

## EDITORIAL LEADERSHIP

### Editor-in-Chief:

**Guzal Khalikulova** – PhD (Art), Professor  
*Uzbek State Institute of Art and Culture*

### Deputy Editor:

**Gulchira Khodjametova** – PhD (History), Professor  
*Uzbek State Institute of Art and Culture (Nukus Branch)*

### Editorial Board:

**Bobir Dadamukhamedov** – PhD (Art)  
*National Institute of Painting and Design named after Kamoliddin Behzod*

**Dilfuzakhon Raimova** – Associate Professor  
*Andijan State University*

**Mamur Umarov** – PhD (Philosophy), Associate Professor  
*Uzbek State Institute of Art and Culture*

**Nadira Alimdjanova** – Associate Professor  
*State Academy of Choreography of Uzbekistan*

**Nozim Kasimov** – DSc (Philology), Professor  
*State Academy of Choreography of Uzbekistan*

**Pulatzhon Tashkenbaev** – DSc (Art), Professor  
*State Academy of Choreography of Uzbekistan*


**Rakhimjon Dusanov** – PhD (Art), Associate Professor  
*Uzbek State Institute of Art and Culture*

**Ramz Kadirov** – Associate Professor  
*Uzbek State Institute of Art and Culture*

**Rudakiy Allanbayev** – Acting Professor  
*Uzbekistan State Conservatory (Nukus Branch)*

**Tatyana Davidova** – PhD (Art), Associate Professor  
*Uzbekistan State Conservatory*


**Zulfiya Ziyavutdinova** – Associate Professor  
*Andijan State University*



## THE DISTINCTIVE CHARACTERISTICS OF THE DIRECTORIAL PROFESSION IN ANIMATION

Kamola Suleymanova <sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Lecturer at the Department of Sound Engineering and Cinematography, Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.19388028>

**Key words:** *animation directing, animation director, animated cinematography, auteur animation, hybrid cinema, visual dramaturgy, timing, audiovisual concept.*

### ABSTRACT

The purpose of this study is to define the professional boundaries between the animation director, supervising animation director, and animator, as well as to substantiate the role of animation directing in contemporary cinematography. The research methodology is based on comparative analysis, theoretical generalization, and visual-dramaturgical analysis of selected animated works. The findings demonstrate that the animation director functions as the central creative agent responsible for ensuring the conceptual, visual, and narrative coherence of a project, requiring interdisciplinary knowledge and advanced artistic thinking. The study also establishes that animation is not limited to children's entertainment but represents an independent art form capable of conveying complex philosophical and existential themes. The results further indicate that the professional status of animation directors remains insufficiently recognized. The study concludes that a more accurate understanding and evaluation of the animation director's role is essential within modern cinematic practice.

## ANIMATSIYADA REJISSYORLIK KASBINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Kalit so'zlar:** *animatsiya rejissurasi, animatsiya rejissyori, animatsion kinematografiya, mualliflik animatsiyasi, gibril kino, vizual dramaturgiya, tayming, audiovizual konsepsiya.*

### ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqotning maqsadi animatsiya rejissyori, animatsiya bo'yicha nazoratchi-rejissyor va animator o'rtasidagi kasbiy chegaralarni aniqlash hamda animatsiya rejissurasining zamonaviy kinematografiyadagi o'rnini asoslashdan iborat. Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy tahlil, nazariy umumlashtirish va aniq animatsion asarlar misolida vizual-dramaturgik tahlil qo'llanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, animatsiya rejissyori loyihaning konseptual, vizual va narrativ yaxlitligini ta'minlovchi markaziy ijodiy subyekt bo'lib, uning faoliyati interdisiplinar bilimlar va yuqori darajadagi badiiy tafakkurni talab etadi. Shuningdek, animatsiyaning bolalar janri bilan cheklanmasligi, balki murakkab falsafiy va ekzistensial mazmunlarni ifoda eta oluvchi mustaqil san'at turi ekani asoslab berildi. Tadqiqot yakunida animatsiya rejissyorining kasbiy maqomi yetarli darajada e'tirof etilmayotgani aniqlanib, uni to'g'ri anglash va baholash zarurligi xulosa qilindi.

Animatsiya zamonaviy ko'ngilochar industriya va vizual madaniyatning muhim va salmoqli qismini tashkil etadi; tarixdagi eng yuqori daromad keltirgan filmlarning katta qismi aynan animatsion asarlardan iborat. Biroq, hatto professional ijodiy muhitda ham animatsiya rejissyorining institutsional va ijodiy roli ko'p hollarda yetarli darajada anglanmaydi. Ko'pchilik tomoshabinlar badiiy filmlar rejissyorlarini osonlik bilan sanab o'ta oladi, ammo animatsiya rejissyorlari haqida so'ralganda, odatda faqat Uolt Disney nomi tilga olinadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – animatsiya rejissyori, yirik loyihalardagi animatsiya bo'yicha nazoratchi-rejissyor hamda animator o'rtasidagi kasbiy funksiyalar va vakolatlar chegarasini aniqlash, shuningdek, ushbu kasb egalari nufuzini jamoatchilik ongida oshirishdan iborat. Ijodiy nuqtai nazardan animatsiya tabiat va insonni mexanik tarzda fotonusxalash bilan cheklanmaydi. U fotomexanik fiksatsiya usulidan ozod bo'lgan kinoning yagona turi bo'lib, unda reallik ekranda allaqachon estetik qayta ishlangan va muallif tomonidan loyihalashtirilgan shaklda namoyon bo'ladi [1, B.4]. Badiiy kinoda rejissyor mavjud reallikni kamera orqali qayd etsa, animatsiyada u mutlaqo yangi reallikni “bo'sh makon”dan yaratadi. Shu bois, animatsiya rejissyoridan storytelling (hikoyachilik) nazariyasi, shuningdek, musiqa, rassomlik va haykaltaroshlik kabi turli san'at sohalarida chuqur bilim va interdisiplinar yondashuv talab etiladi.

To'liq metrajli animatsion loyihalarda boshqaruv ierarxiyasi yanada murakkablashib, "umumiy rejissyor" (director) va "animatsiya rejissyori" (animation director, supervisor) vazifalari funksional jihatdan ajratiladi. Bunday loyihalarda umumiy rejissyor asarning konseptual g'oyasini shakllantiradi va dramaturgik asosini yaratadi. Animatsiya rejissyori esa mazkur g'oyani amaliy jarayonlarda tatbiq etuvchi, ishlab chiqarishning kundalik bosqichlarini muvofiqlashtiruvchi va animatorlar jamoasi faoliyatini nazorat qiluvchi markaziy figura sifatida namoyon bo'ladi. Uning asosiy vazifalaridan biri – muayyan sahnaning dramaturgik va plastik xususiyatlaridan kelib chiqib, mos animatorlarni saralash ("kasting") va turli ijodkorlar tomonidan yaratilgan materialni yagona uslubiy va estetik yaxlitlikka keltirishdan iborat. Animatsiya rejissyori – multiplikatsion loyihaning vizual, audial, narrativ va subtekstual qatlamlarida umumiy konsepsiyani shakllantiruvchi asosiy ijodiy rahbardir. Animatsiyada rejissura jarayoni badiiy makonni estetik va mantiqiy jihatdan integral obraz sifatida tashkil etishga qaratilgan murakkab kasbiy-ijodiy faoliyat hisoblanadi. Rejissyorning funksiyalari g'oya va ssenariy bosqichidan tortib yakuniy ishlab chiqarishgacha bo'lgan barcha texnologik va ijodiy jarayonlarni (pipeline) qamrab oladi. Xususan, u mualliflik konsepsiyasi asosida asarning audiovizual modelini shakllantiradi, voqealar rivoji va syujetning kalit nuqtalarini vizuallashtirish maqsadida raskadrovkalar (storyboard) ishlab chiqadi. Shuningdek, ovoz yozish jarayonida aktyorlar va ovoz rejissyorlari bilan ishlab, zarur emotsional va intonatsion ifodaga erishilishini ta'minlaydi hamda montaj jarayoni orqali asar dinamikasi va dramaturgik ritmini nazorat qiladi. Umuman olganda, animatsiya rejissyori o'ziga xos "dirijyor" funksiyasini bajarib, personaj dizaynerlari, animatorlar, operatorlar, bastakorlar va dasturchilar faoliyatini yagona ijodiy paradigma doirasida birlashtiradi. Animatsiya rejissyori yaratgan badiiy olam o'zining ichki qonuniyatlari va "fizikasi"ga ega bo'ladi. Ushbu tizimning asosiy harakatlantiruvchi mexanizmi – tayming (harakat va vaqt nisbati) hisoblanadi. Jon Halas ta'kidlaganidek, tayming animatsiyaning ko'zga ko'rinmas, ammo mazmuni shakllantiruvchi asosiy komponenti bo'lib, u harakatga semantik yuklama beradi. Animatsiyada obyektning A nuqtadan B nuqtaga ko'chirish uchun uni oddiy tasvirlash yetarli emas; muallif virtual gravitatsiya, inersiya va personajning ichki psixologik motivatsiyasini hisobga olishi, ya'ni mavjud bo'lmagan narsaga "vazn" va harakat mantig'ini baxsh etishi lozim. Shu bilan birga, animatsion makon tabiatan shartli bo'lib, u uch o'lchamli illyuzor muhit, ikki o'lchamli tekislik yoki mutlaqo abstrakt bo'shliq shaklida namoyon bo'lishi mumkin [2, B.484].

Jamiyatda, shu jumladan buyurtmachilar orasida ham eng keng tarqalgan metodologik xato – animatsiya rejissyori va animator tushunchalarini sinonim sifatida qabul qilishdir. Amalda esa, bu ikki kasb funksional va ijodiy jihatdan mutlaqo farqli bo'lib, animatorni rejissyor bilan tenglashtirish aktyorni rejissyor bilan adashtirishga teng xatodir. Animatorlar loyihaning ijrochilari sifatida personajlarga hayot bag'ishlaydi va o'z faoliyatini rejissyor konsepsiyasi asosida amalga oshiradi. Rejissyor esa ishlab chiqarishning pre-production va post-production bosqichlarini boshqarib, ko'p sonli mutaxassislarni yagona ijodiy strategiya doirasida integratsiya qiladi. Animatsiya rejissurasi o'zining maqsadi, auditoriyasi va tasviriy ifoda vositalariga ko'ra yuqori darajada diversifikatsiyalangan bo'lib, zamonaviy kino industriyasida ushbu soha vakillarini ijodiy yondashuviga ko'ra shartli ravishda uchta asosiy toifaga ajratish mumkin.

*Birinchi toifa* – bolalar va ommaviy animatsiya rejissyorlari. Jamoatchilik ongida animatsiya ko'pincha bolalar uchun mo'ljallangan ko'ngilochar mahsulot sifatida qabul qilinadi va mazkur yo'nalishdagi rejissyorlar keng auditoriyaga moslashtirilgan vizual-narrativ mahsulotlar yaratishga ixtisoslashgan. Ushbu asarlar yuqori darajada iste'mol qilinsa-da, auditoriyaning kognitiv xususiyatlari (ayniqsa bolalarda) sababli, ular ortida muayyan muallif – rejissyor mavjudligini anglash darajasi past bo'lib, natijada ushbu toifa vakillarining ijodiy maqomi ko'p hollarda soyada qoladi.

*Ikkinchi toifa* – artxaus (mualliflik) animatsiyasi rejissyorlari. Mualliflik animatsiyasining tarixi jamiyatdagi qadriyatlar transformatsiyasi va dunyoqarashdagi global o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab, ammo izchil ijodiy evolyutsiyani aks ettiradi.

Bu jarayon, avvalo, akademik realizm va "Disney" uslubi (kanoni)dan voz kechib, uning o'rniga minimalizm, plakat uslubi va belgili-shartli vizual tilga o'tish bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy ongning individuallashuvi va yangi ifoda vositalarini izlash ehtiyoji natijasida animatsiya metaforik, allegorik va falsafiy-poetik xususiyat kasb eta boshladi.

Bu bosqichda ijodkorlar diqqat markazini tashqi voqelikdan insonning ichki ruhiy olamiga, uning psixologiyasiga, shuningdek milliy va jahon madaniy merosiga (ayniqsa tasviriy va xalq amaliy san'ati an'analari) qaratdilar. Bunday rejissyorlar an'anaviy syujet modellaridan voz kechib, vizual obrazlar orqali falsafiy va ekzistensial muammolarni tadqiq etadi [3, B.99].

O'zbek animatsiyasida shakllangan bunday poetik-falsafiy model animatsiyaning faqatgina bolalar uchun mo'ljallangan janr emasligini, balki murakkab ekzistensial mavzularni ko'tarib chiqaruvchi jiddiy kinematografik vosita ekanligini D. Salimovning "Tomchi", S. Alibekovning "Exogramma", N. To'laxo'jayevning "Yoqimli yomg'ir yog'adi", S. Murodxo'jayevning "Hayot daryosi", D. Vlasovning "Oq tovuq" kabi kartinalari isbotlaydi. Masalan, N. To'laxo'jayevning "Yoqimli yomg'ir yog'adi" asarida vizual olam animatsiya rejissyorining yangi olam va atmosfera yaratish mahorati o'zining yuksak cho'qqisiga chiqqan. Mazkur film ekran talqinida an'anaviy syujetga asoslangan bolalar multfilmi modelidan chekinib, falsafiy kuzatuv shaklida qurilgan. Asarda animatsiya rejissyorining kuchi shunda ko'rinadiki, film dramaturgiyasi markazida inson obrazi yo'q. Inson yo'q bo'lganidan keyin ham faoliyat yuritishda davom etayotgan avtomatlashtirilgan makon orqali rejissyor "makon qahramonligi" tamoyilini shakllantirgan. Interyer, texnik qurilmalar va ularning takrorlanuvchi harakatlari mizansahnaning asosiy dramatik vositasiga aylangan. N. To'laxo'jayevning "Yoqimli yomg'ir yog'adi" multfilmida inson istiqomat qilgan xona mizansahnasi global halokatdan so'ng yuzaga kelgan dahshatli bo'shliq va postapokaliptik muhitni o'zida mujassam etadi. Xona ichida odamlar yo'qligiga qaramay, gigant robot ko'rinishidagi "aqli uy" tizimi belgilangan algoritm bo'yicha ishlashda davom etadi: u uyg'onish vaqtini e'lon qiladi, nonushta tortadi va hech kim o'tirmaydigan bo'sh stullarni stolga yaqinlashtiradi. Mizansahnaning eng fojiviy detallaridan biri – ko'rpa-to'shakdan inson tanasi shaklida to'planib qolgan kulning qoqib tashlanishi hamda hech kim tegmagan taomlarning paydo bo'lib, yana yo'qolishidir. Shuningdek, xonadagi vizual detallar qatorida odamlarning falokatga tayyorlanganini bildiruvchi maxsus himoya kostyumlari ham ko'zga tashlanadi. Ochiq derazadan uchib kirgan tirik qushga robotning dushmandek munosabatda bo'lishi va o'z paypaslagichlari bilan Iso Masih haykalchasini teshib yuborishi mazkur insonsiz makonda gumanizm va mehr-oqibatning butunlay yo'qolganini kuchli ramziy detallar orqali ko'rsatib beradi. Bu tasvirlarning barchasi xonani shunchaki yashash joyi emas, balki insonsiz ham ishlashda davom etayotgan fojiviy va sovuq makonga aylantiradi. Rejissyor film temporitmini maxsus tashkil etilgan mexanik ritm orqali boshqaradi. Dialoglarning deyarli yo'qligi rejissyorning ongli estetik qarori bo'lib, statik kompozitsiyalar va montaj orqali tomoshabinni oddiy kuzatuvchidan ko'ra tafakkur qiluvchi subyektga aylantiradi.

Uchinchi toifa – kombinatsion (gibrid) kino rejissyorlari. Bugungi kinematografiyada mustaqil mualliflik kinosidan tortib to yirik blokbasterlargacha bo'lgan doirada jonli ijro (live-action) va animatsiya o'rtasidagi chegaralar tobora yo'qolib bormoqda. Masalan, jonli aktyorlar ijrosini dekoratsiyalar va raqamli vizual effektlar bilan uzviy birlashtiradi. Yirik miqyosda esa Jeyms Kameronning "Avatar" filmi bu toifaning yorqin namunasi, rejissyor "harakatni yozib olish" (motion capture) texnologiyasi yordamida tirik aktyorlarning yuz ifodasi va plastikasini kompyuter grafikasi (animatsiya) bilan mukammal uyg'unlashtirgan. Bu toifadagi rejissyorlar bir vaqtning o'zida ham real tasvirga olish maydonchasi, ham virtual animatsion makon qonuniyatlarini boshqara oladigan universal ijodkorlardir. Tasviriy yechimdagi syurrealistik uslub – deformatsiyalangan shakllar va kontrast ranglar orqali postapokaliptik muhit yaratiladi. Robot obrazining ilonsimon plastika orqali talqin qilinishi, uning tirik organizmni eslatuvchi harakatlari orqali texnika va jonlilik o'rtasidagi chegara noaniqlashtirilgan. Bularning barchasi rejissyor tomonidan har bir kadr, har bir detal va tovushning mantiqiy loyihalashtirilganini tasdiqlaydi. Musiqa esa vizual harakatni takrorlamay, vayron bo'lgan dunyo bilan lirik ohanglar o'rtasida kontrast yaratadi va bosqichma-bosqich ekzistensial taranglikni hosil qiladi. Animatsiya rejissyorlarining ish xususiyati benihoya murakkab bo'lib, ular kadrni toza va bo'sh virtual makondan boshlaydilar. Jonli ijrodan farqli o'laroq, ular eng kichik chang zarrasidan tortib, eng qo'rqinchli ajdarholargacha bo'lgan barcha detallarni oldindan loyihalashtirishi va yaratishi shart. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, animatsiya rejissyorlari mehnati yetarlicha e'tirof etilmasligining asosiy sabablaridan biri – animatsiyaning jamiyat tomonidan asosan bolalar uchun mo'ljallangan "kichik san'at" sifatida qabul qilinishi bilan bog'liq.

Bundan tashqari, animatsiya jarayoni tomoshabin ongida go'yoki o'zidan o'zi, "sehrli" tarzda sodir bo'ladi, degan noto'g'ri qarash mavjud. Aslida esa animatsiya rejissyori jonli ijro rejissyorining barcha ko'nikmalariga, shuningdek, qo'shimcha hunarmandchilik va dizayn mahoratiga ega bo'lishi kerak. Ularning har ikkisi uchun eng asosiy vazifa – tasvir va ovozlarni orqali hikoya so'zlashdir. Bugungi kunda kinematografiyada badiiy kino va animatsiya o'rtasidagi chegaralar tobora yo'qolib bormoqda (masalan, "Avatar" va "O'rgimchak odam" kabi gibril filmlar bunga yaqqol misol bo'la oladi). Xulosa qilib aytganda, animatsiyaning yaratilish jarayoni o'z-o'zidan sodir bo'ladigan "sehr" emas, balki turli xil san'at vositalarini mukammal biluvchi rejissyorning tinimsiz mehnati mahsulidir. Animatsiya rejissyorining asosiy vazifasi – barcha san'at turlari imkoniyatlarini umumlashtirgan holda, tomoshabiniga tasvir va ovozlarni orqali ta'sirchan hikoya so'zlab berishdir. Ularning mehnati va keng qamrovli san'at bilimlari zamonaviy kinematografiyada yuksak qadrlanishi lozim.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, animatsiya rejissurasi zamonaviy kinematografiya tizimida alohida va murakkab kasbiy-ijodiy faoliyat turi sifatida shakllangan bo'lib, u nafaqat texnik jarayonlarni boshqarish, balki yaxlit audiovizual konsepsiyani yaratish va uni amalga oshirish bilan bog'liq fundamental vazifalarni o'z ichiga oladi. Animatsiya rejissyori faoliyati badiiy kino rejissyoridan tubdan farq qiladi, chunki u mavjud reallikni qayd etish emas, balki yangi, muallif tomonidan loyihalashtirilgan badiiy makonni yaratish bilan shug'ullanadi. Shu jihatdan, animatsiya rejissurasi interdisiplinar bilimlarni, yuqori darajadagi estetik tafakkurni hamda murakkab texnologik jarayonlarni chuqur anglashni talab etuvchi universal kasb sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot davomida animatsiya rejissyori, animatsiya bo'yicha nazoratchi-rejissyor va animator o'rtasidagi kasbiy farqlar tizimli ravishda asoslab berildi. Xususan, animator ijrochi sifatida rejissyor tomonidan belgilangan konsepsiyani amalga oshirsa, animatsiya rejissyori esa butun loyihaning konseptual, vizual va dramaturgik yaxlitligini ta'minlovchi markaziy ijodiy subyekt sifatida faoliyat yuritadi. Shu bilan birga, yirik loyihalarda boshqaruv ierarxiyasining murakkablashuvi animatsiya rejissyorining tashkiliy va muvofiqlashtiruvchi rolini yanada kuchaytiradi.

Shuningdek, tadqiqot animatsiya san'atining mazmuniy va shakliy jihatdan yuqori darajada diversifikatsiyalanganligini ko'rsatdi. Bolalar va ommaviy animatsiya, mualliflik (artxauz) animatsiyasi hamda kombinatsion (gibril) kino yo'nalishlari animatsiya rejissurasining turli ijodiy strategiyalarini namoyon etadi. Xususan, mualliflik animatsiyasi misolida animatsiyaning murakkab falsafiy va ekzistensial masalalarni ifoda eta oluvchi mustaqil san'at turi sifatidagi imkoniyatlari ochib berildi. Gibril kino esa animatsiya va jonli ijro o'rtasidagi chegaralarning tobora yo'qolib borayotganini va yangi universal ijodkor tipining shakllanayotganini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning muhim xulosalaridan biri shundaki, animatsiya rejissyorlari faoliyati jamiyatda yetarli darajada e'tirof etilmayapti. Buning asosiy sabablari sifatida animatsiyaning asosan bolalar uchun mo'ljallangan "yengil janr" sifatida qabul qilinishi hamda animatsiya jarayonining murakkabligi va bosqichma-bosqich yaratilish mexanizmlarining keng jamoatchilik tomonidan yetarli darajada anglanmasligi qayd etildi. Aslida esa animatsiya rejissyori yuqori darajadagi badiiy tafakkur, texnik bilim va tashkiliy salohiyatni o'zida mujassam etgan ko'p qirrali mutaxassis hisoblanadi. Tadqiqotda ilgari surilgan qarashlardan kelib chiqib, animatsiya rejissyorining kasbiy maqomini mustahkamlash va uning faoliyatini to'g'ri anglashga qaratilgan bir qator amaliy yo'nalishlar zarurligi asoslanadi. Avvalo, animatsiyani faqat bolalar auditoriyasi bilan cheklangan janr sifatida talqin qilishdan voz kechish va uni mustaqil, murakkab va ko'p qatlamli kinematografik san'at turi sifatida qabul qilish zarur. Shu bilan birga, animatsiya jarayonining bosqichlari, xususan rejissyorning undagi hal qiluvchi roli haqida ilmiy va ommabop axborotlarni keng targ'ib qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, animatsiya sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarni tayyorlash jarayonida interdisiplinar yondashuvni kuchaytirish, ya'ni ularning nafaqat texnik, balki badiiy va nazariy bilimlarini kompleks rivojlantirish zarurati ham tadqiqotda asoslab beriladi. Shu orqali animatsiya rejissyorlarining ijodiy salohiyatini to'liq namoyon etish va ularning zamonaviy kinematografiyadagi o'rnini mustahkamlash imkoniyati yaratiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Volkov A. A. *Problemy razvitiya iskusstva sovremennoy multikatsii*: avtoreferat dissertatsiyasi. – Moskva: VGIK, 1971. – B. 4.
2. Halas J., Uayteker G. *Tayming v animatsionnom kinematografe*. – London, 1981. – B. 484.
3. Krivulya N. G. *Osnovnye tendensii avtorskoj animatsii Rossii 60–90-x godov*: dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni kandidata iskusstvovedeniya. – Moskva: VGIK, 2001. – B. 99.

## ILMIY TAQRIZ

Mazkur maqola animatsiya rejissurasining nazariy va amaliy jihatlarini tizimli ravishda tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, unda animatsiya rejissyori faoliyatining o'ziga xosligi, kasbiy chegaralari va zamonaviy kinematografiyadagi o'rni ilmiy asosda yoritilgan. Muallif animatsiya san'atining ko'p qatlamli tabiati hamda uning badiiy va texnologik komponentlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniq misollar asosida ochib beradi. Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda animatsiya rejissyori, animatsiya bo'yicha nazoratchi-rejissyor va animator o'rtasidagi kasbiy farqlar konseptual darajada asoslab berilgan. Shuningdek, animatsiya rejissurasining bolalar ko'ngilochar mahsuloti doirasidan tashqariga chiqib, murakkab falsafiy va ekzistensial mazmunlarni ifoda etuvchi mustaqil san'at turi sifatida talqin qilinishi muhim nazariy yondashuv sifatida namoyon bo'ladi. Muallif tomonidan animatsiya rejissurasining uch toifaga ajratilishi (ommaviy, mualliflik va gibrid yo'nalishlar) ushbu sohaning ichki differensiasiyasini aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning dolzarbli zamonaviy kinematografiyada animatsiya va jonli ijro o'rtasidagi chegaralarning tobora yo'qolib borayotganligi, shuningdek, animatsiya rejissyorlari faoliyatining yetarli darajada e'tirof etilmayotganligi bilan asoslanadi. Amaliy ahamiyati esa animatsiya sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, pedagoglar va tadqiqotchilar uchun animatsiya rejissurasining nazariy asoslarini aniqlashtirish va kasbiy kompetensiyalarni tushunishda qo'l kelishi bilan belgilanadi. Metodologik jihatdan maqola qiyosiy tahlil, nazariy umumlashtirish va aniq badiiy asarlar misolida olib borilgan vizual-dramaturgik tahlilga tayanadi. Tanlangan metodlar tadqiqot maqsadiga mos bo'lib, keltirilgan dalillar va misollar natijalarning ishonchligini ta'minlaydi. Ayniqsa, muallif tomonidan animatsion asarlar asosida olib borilgan tahlil maqolaning empirik asosini mustahkamlaydi. Maqolaning kuchli jihatlaridan biri – uning mantiqiy izchilligi, terminologik aniqligi va ilmiy uslubda yozilganligidir. Matnda animatsiya rejissurasining murakkab jihatlarini sodda va aniq ifodalangan, nazariy qarashlar esa amaliy misollar bilan boyitilgan. Shu bilan birga, ayrim joylarda tushunchalarning yanada aniqroq differensiasiya qilinishi yoki xalqaro manbalar doirasini kengaytirish maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin. Umuman olganda, taqdim etilgan maqola ilmiy jihatdan puxta ishlangan, dolzarb va amaliy ahamiyatga ega tadqiqot hisoblanadi. Muallif tomonidan ilgari surilgan xulosalar yetarli darajada asoslangan va zamonaviy ilmiy talablarga javob beradi. Shu bois, mazkur maqolani ilmiy jurnalda nashr etish uchun tavsiya etish mumkin.

### Disclaimer ©

This editorial review has been prepared by the Editorial Board of the *Journal of Culture and Art* for the purposes of internal editorial assessment and quality assurance within the journal's publication process. This review is intended to provide an analytical overview of the scientific content, methodological approach, and thematic relevance of the submitted work. It does not constitute peer review, does not replace independent expert evaluation, and should not be interpreted as reflecting the personal views of the author(s) or as representing the official position of the journal. The Editorial Board assumes no responsibility for the implementation, interpretation, or consequences of any observations, comments, or analytical conclusions contained in this review. The review may include content generated with the assistance of artificial intelligence tools used for editorial support purposes.

**This editorial review is provided solely to enhance transparency in the editorial process and to support the maintenance of academic and publication standards.**